



ISSN: 2181-0796  
DOI: 10.26739/2181-0796  
[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

**TIL, TA'LIM, TARJIMA  
XALQARO JURNALI**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ  
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД**

**INTERNATIONAL JOURNAL OF  
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION**



**Alisher Navoi**



**VOLUME 3  
ISSUE 4**

**2022**

## T I L S H U N O S L I K

<b>1.Rasulov R., Murodova F.</b> FE'L ASOSLI GAPLARNING OBYEKT VALENTLIGI.....	7
<b>2.Пардаев З.</b> ЎЗБЕК ТИЛИДА НУТҚИЙ АКТЛАРНИНГ БАҲО БИЛАН ПРАГМАТИК ҚАТЛАМЛАНИШИ.....	17
<b>3.Safarov F.</b> O'ZBEK ADABIY TILI GRAMMATIK QURILISHINING TAYANCH UNSURI.....	26
<b>4.Рўзиев Я.</b> ЎЗЛАШТИРМА НУТҚНИНГ МОРФОЛОГИК ТУРИ ВА УНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ (ЎЗБЕК ВА НЕМИС ТИЛЛАРИ МИСОЛИДА).....	35
<b>5.Nigmatova L.</b> SISTEMAVIYLIKNING FORMAL-FUNKSIONAL TUSHUNILISHI.....	46
<b>6.Botirova A.</b> GRAMMATIK O'QUV LUG'ATLARI TUZISH VA ULARDAN FOYDALANISH BO'YICHA TAVSIYALAR.....	57
<b>7.Жаббарова Ю.</b> ҚАРИНДОШЛИК ТЕРМИНОЛОГИЯСИ МУҲИМ ЭТНОГРАФИК ВА ТАРИХИЙ МАНБА СИФАТИДА.....	65
<b>8.Долиева Л.</b> "ЭМОЦИЯ"НИНГ ФАНЛАРАРО РАКУРСИДАГИ ИЧКИ ВА ТАШҚИ ТАСВИРИ.....	72
<b>9.Гапбаров А.</b> ПУБЛИЦИСТИК МАТННИНГ СОЦИОЛИНГВИСТИК ТАДҚИҚИ.....	86
<b>10.Urokov X.</b> KUN.UZ IJTIMOIIY TARMOQ XABAR MATNLARINING SOTSIOLINGVISTIK TANLILI.....	94

## T A' L I M S H U N O S L I K

<b>11.Юсупова З.</b> РОЛЬ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ.....	102
<b>12.Qodirov U.</b> CHET TIL DARSLARIDA KULTUROLOGIK YONDASHUV.....	112
<b>13.Юсупова З.</b> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ ПЕДАГОГА КАК КОМПОНЕНТ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И ПОКАЗАТЕЛЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА.....	121

## T A R J I M A S H U N O S L I K

<b>14.Юлдашева Д.</b> ВКЛАД АМЕРИКАНСКОГО ЛИНГВИСТА ЭДВАРДА СЕПИРА В СОВРЕМЕННОЕ ЯЗЫКОЗНАНИЕ.....	130
---	-----

# ТИЛ, ТАЪЛИМ, ТАРЖИМА ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

**Nigmatova Lolaxon**  
dotsent, filologiya fanlari doktori,  
Buxoro davlat universiteti,  
Buxoro, O'zbekiston  
nigmatovalolaxon@gmail.com

## SISTEMAVIYLIKNING FORMAL-FUNKSIONAL TUSHUNILISHI

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tilni sistema sifatida ko'rinishning namoyon bo'lishi, sistema, sistemaviylik, sistemolog tushunchalarining ahamiyati hamda ushbu tizimni tashkil etuvchilar borasida bahs yuritiladi. Sistema qanchalik rang-barang talqin qilinmasin, barcha sistemaviy ishlarda unga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlar mavjud. Har bir tizim sistemaning aniq, qat'iy belgilarga tayanadi. Bundan tashqari har bir lisoniy sistemaning faqat o'zigagina xos bo'lgan juda ko'p belgi-xususiyatlari bo'ladi. Lisoniy sistema tafakkurda mavjud, uni ochib berish juda qiyin, ko'rsatish esa umuman bo'lmaydi. Shuning uchun sistema mohiyati munosabatlarini ko'rsatish maqsadida maqolada geometrik figuralar orqali lisoniy tizimida sodir bo'ladigan hodisalarga e'tiborimizni qaratdik. Va nega sistemaviy talqinlarda lison-nutq (lange-parole) bo'linishi farqlanadi va nega sistemaviylik faqat lisoniy tizim uchun xos belgi sanaladi degan savolga javob berishdga xarakat qildik.

**Kalit so'zlar:** sistema, munosabat, sistemologiya, lisoniy tizim, lison, til, nazariya, soha, so'z, butunlik.

**Nigmatova Lolakhan**  
associate professor, doctor of philological sciences,  
Bukhara State University,  
Bukhara, Uzbekistan  
nigmatovalolaxon@gmail.com

## FORMAL-FUNCTIONAL UNDERSTANDING OF SYSTEMATICITY

### ABSTRACT

This article discusses the manifestation of language as a system, reveals the importance of such concepts as system, systemicity, and also talks about the founders of the system. No matter how multifaceted and versatile the system is shown, in all works one can trace the general patterns characteristic of it. Each system relies on certain, absolute, fixed concepts. In addition, each linguistic, language system has its own unique differences characteristic of it alone. Language as a system is very difficult to show, it is reflected only in our thinking. And therefore, in order to reveal the linguistic systemic relations in the

article, we decided to rely on the phenomena and relations occurring in geometry. And they tried to answer the question why in systemology it is customary to distinguish language-speech (lange-parole) and why systemicity is considered a characteristic feature of only a language system.

**Keywords:** system, relationship, systemology, linguistic system, language, language, theory, field, word, whole.

**Нигматова Лолахон**

доцент, доктор филологических наук,  
Бухарского государственного университета,  
Бухара, Узбекистан  
nigmatovalolaxon@gmail.com

## СИСТЕМА И ЕЕ ФОРМАЛЬНО-ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ ПОНИМАНИЕ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается проявление языка как системы, раскрывается важность таких понятий как система, системность, а так же ведется речь об основателях системы. Как бы не показывали систему многогранной и разносторонней, во всех работах можно проследить общие закономерности, характерные для нее. Каждая система опирается на определенные, абсолютные, фиксированные понятия. Кроме того каждая лингвистическая, языковая система имеет свои уникальные отличия характерные для нее одной. Язык как систему показать очень тяжело, она отражается только в нашем мышлении. И поэтому в статье для раскрытия языковых системных отношений мы решили опереться на явления и отношения, происходящие в геометрии. И попытались ответить на вопрос, почему в системологии принято отличать язык-речь (lange-parole) и почему системность считается характерным признаком только языковой системы.

**Ключевые слова:** система, отношение, системология, языковая система, язык, язык, теория, поле, слово, целое.

Fizika va kimyo fanlari moddalarning zohiriy, tashqi tavsifidan - atom va molekula bosqichidagi tavsifidan - ularning ichiga - yadroviy qurilishiga, nurning kvant va korpuskulyar tuzilishi bosqichiga o'tgach, sistema va uning qurilishi, elementlarning sistema ichidagi va undan tashqaridagi xossalari va mohiyati haqida tasavvurlar tamoman o'zgardi: e'tibor bevosita kuzatishda moddiy shaklda berilgan organizm va uning tarkibiy qismlari kabi butunliklardan ko'z ilg'amas zarralarning o'zaro munosabatlar, aloqa va bog'lanishlar qonuniyatlariga ko'chirildi. Ayon bo'ldiki, ayni bir narsa ma'lum bir sistemaning elementi sifatida va shu sistemadan tashqarida tamoman boshqa-boshqa mohiyatga va xossalarga ega ekan. O'sha davrlarda (XX asrning boshlarida) fanda (va hatto falsafada) naturalistik yo'nalish juda kuchli edi [1, B. 75; 2, B. 28]. Shuning uchun sistemaning yangicha, nonaturalistik talqini tarafdorlari o'z misollarini biologik hodisalar asosida tushuntirishga va o'z fikrlarini asoslashga urinar edilar. Shunday misollardan biri "odam ko'zi" (aniqrog'i "ko'z olmasi") bilan bog'liq. Bu a'zo odam uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi hammaga ayon. Lekin yangi sistemologlar, "bu a'zo qachon va qaysi sharoitda mana shunday ahamiyatli?" degan jumboqni o'rtaqa tashlashdi. Bu savolga javob o'z-o'zidan anglashilib turibdi: agar ko'z olmasi o'z o'rnida, odam (yoki boshqa bir tirik mavjudot) butunligi, sistemasi ichida bo'lsa va u sistemada o'ziga xos o'rinni egallab turgan bo'lsagina ahamiyatga molik. Agar "ko'z olmasi" o'z o'rnida, o'z sistemasida bo'lmasa, u 50 gr. go'sht, xolos, hech qanday vazifani bajara olmaydi. Demak,

sistemologlar shunday xulosa qilishdi: "ko'z olmasi" o'z sistemasida, sistema ichida boshqa elementlar bilan uzviy sistemaviy - ko'z ilg'amas - munosabatlarga kirishsagina, "ko'rish organi" vazifasini bajara oladi. Shu sistemadan tashqarida u "nochor" va aytish mumkinki, hech narsa [3, B. 48]. Ana shu asosda sistemada elementlar aro munosabatlarning hal qiluvchi ahamiyati haqida qat'iy xulosalar chiqarila boshlandi.

Fizika va kimyo yadro ichiga va yorug'lik mohiyatiga chuqurlasha borgan sari sistema va sistemaviy qurilishning yangicha talqinlariga qiziqish orta bordi. XX asrning o'rtalarida maxsus fan - sistemologiya yoki sistema umumiy nazariyasi shakllandi va ommalashdi; barcha fanlarda naturalistik, komparativistik, qiyosiy-tarixiy o'rganishdan sistemaviy tahlil usullariga ko'chish sezila boshladi. Tilshunoslikda ham F.Bopp, P.Paul, A.Shleyxer, X.Vostokov kabi komparativistlar va yosh grammatikachilar asarlariga tayanib tadqiqot olib borish o'rnini dastlab F.de Sossyur, keyinchalik N.S.Trubetskoy, R.O.Yakobson, V.Skalichka, E.Sepiru, L.Blumfild kabilarga havolalar egalladi. Sistemachilik bir rusumga, modaga aylandi: hamma sistemashunos bo'ldi. Lekin har kim sistemani o'zicha talqin qilar edi.

Sistema qanchalik rang-barang talqin qilinmasin, barcha sistemaviy ishlarda sistema uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlar mavjud. Bular, asosan, quyidagilar:

- 1.Sistema murakkab butunlik bo'lib o'z rivojlanish va yashash qonuniyatlariga ega.
- 2.Sistema murakkab butunlik bo'lganligi sababli u, albatta, tarkibiy qismlardan - elementlardan iborat bo'ladi.
- 3.Elementlar (shartli ravishda E) sistema (S) tarkibida o'zaro barqaror munosabatlar (shartli ravishda R) bilan o'zaro bog'langan bo'ladi.
- 4.Sistemada elementlar o'zgarmay, munosabatlar o'zgarsa, sistema buziladi yoki yangi (oldingidan farqli) sistema vujudga keladi [4,B. 98; 5,B.104 ].


Yuqorida sanalgan xususiyatlar sistemaning mutlaq, qat'iy belgilaridir. Bulardan tashqari har bir sohadagi sistemaning (chunonchi, lisoniy sistemaning) faqat o'zigagina xos bo'lgan juda ko'p belgi-xususiyatlari bo'ladi.

Shu bilan sistemashunoslar orasida birlik va yakdillik deyarli tugaydi. Chunki sistemaning turlari, undagi elementlar miqdori, elementlarning o'zaro aloqalari talqinida tadqiqotchilar orasida xilma-xilliklar juda ko'p. Jumladan, struktura tushunchasi haqida ham. Struktura hamisha sistema bilan birga qo'llaniladi, ayrim hollarda u sistema bilan [6, B. 54; 7, B. 68] ba'zan esa sistema ichida elementlarning joylashish tartibi va o'zaro munosabatlari bilan tenglashtiriladi. Nazarimizda, strukturani shunday tushungan ma'qul. Chunki bunday tushunish matematika tomondan ham isbotlanadi.

Agar  $SqE+R$  bo'lsa, unda  $RqS-E$ , ya'ni struktura munosabatlarga teng bo'ladi. Munosabatlar esa, albatta, elementlarning sistema ichida joylashish tartibini ham o'zichiga oladi.

Sistema, uning elementlari va munosabatlari orasidagi bog'lanishni bilish va tushunish uchun biz juda sodda sistema tanlab, unda elementlar va munosabatlarni o'zgartirib ko'ramiz. Bu amaliyot sistemada element, uning turli shakllari, munosabatlarning o'zni qanday ekanligini bizga yorqin ko'rsatadi. Bu amaliyotlar uchun biz juda sodda, ko'zga yaqqol tashlanib turadigan sistema - 4 ta gugurtcho'pidan yasalgan ochiq burchakli uchburchakni (1.-chizma) va kvadratni (2.-chizma) olamiz.

Ochiq burchakli uchburchak



1.-chizma

Kvadrat



2.-chizma

Ikkala chizmadagi tasvir moddiy jihatdan (gugurt cho'pligi yoki to'g'ri chiziq ekanligi bilan) bir xildir. Farq nimada? Buning uchun kvadrat gugurt cho'plaridan (elementlardan) qanday hosil qilinganligini ko'rib o'tamiz. Kvadrat quyidagi munosabatlarning mahsuli: E (elementlar) - 4 ta gugurt cho'pi.

R (munosabatlar) - tomon - gugurt cho'plarning bir biriga tengligi, qarama-qarshi tomonlarning o'zaro parallelligi va kesishadigan tomonlarning o'zaro perpendikulyarligi. Bunday elementlar majmuyi va munosabati kvadratni beradi (1.2-chizma).

Endi bir necha amaliyotlarda ABCD kvadratida elementlarni va munosabatlarni birin-ketin o'zgartirib ko'ramiz va har biriga o'zgarish bu butunlikka qanday ta'sir qilishini ko'rib va eslab boramiz.

I amaliyot: Agar sistemadagi (ABCD kvadratidagi) R (munosabatlar) ni qisman o'zgartirsak: Chunonchi, tomonlarning o'zaro tengligi o'zgarsa, ya'ni tomonlar o'zaro teng bo'lmasa (3-chizma), to'g'ri burchakli to'rtburchak, yoki tengligi saqlanib, perpendikulyarligi o'zgarsa (4-chizma), romb, yoki ham tengligi, ham perpendikulyarligi o'zgarsa (5-chizma), trapetsiya, yoki tengligi va parallelligi saqlanib, perpendikulyarligi o'zgarsa (6-chizma), o'tmas burchakli to'rtburchak, parallelogramma- kvadratdan farqli tamoman boshqa-boshqa sistemalar hosil bo'ladi.

2.6.-chizmalarini oddiygina qiyoslasak, sistemada munosabat turlarining qisman yoki butunlay o'zgarishi yangi sistema hosil bo'lishiga olib kelishi, oldingi sistema buzilishi (yo'qolishi) haqida xulosa chiqara olamiz.

II amaliyot: Agar sistemadan (ya'ni ABCD kvadratidan - 2-chizma) elementlardan bittasini (7-chizma), ikkitasini (8-chizma), yoki hammasini (9-chizma) chiqarib tashlasak, lekin munosabatlar chizmasini o'zgartirmay saqlab qolsak. U holda sistema tugalligi yo'qoladi. Lekin ma'lum bir turdagi (shakl, vazifa va munosabatdagi) element bilan to'ldirilishga imkoniyat saqlanadi.

II amaliyot asosida biz quyidagi xulosaga kela olamiz: sistemada elementlarning yarimdan kami yo'qolsa, sistema o'z butunligini saqlaydi, lekin notugal, "majruh", "nogiron" - zarur element bilan to'ldirilishga ehtiyojmand - bo'ladi. Agar sistemadan elementlar batamom chiqarilsa, sof struktura (sistemaning chizmasi, loyihasi, sxemasi) qoladi, xolos.

III amaliyot: Agar sistemadan (ABCD kvadratidan - 2-chizma) R (munosabatlarni)

to'la-to'kis chiqarsak, u holda butunlik tamoman yo'qoladi, 4 ta gugurt cho'pining betartib yig'indisi qoladi, xolos.

IV amaliyot: Agar sistemadan (ABCD kvadratidan - 2-chizma) bitta gugurt cho'pini chiqarib tashlab, uni uzunligi 5 sm bo'lgan boshqa bir cho'pcha yoki ipchaga (qanaqa bo'lmasin to'g'ri chiziq tabiatiga ega bo'lgan 5 smli moddiy bir narsaga) almashtirsak, sistemada hech qanday o'zgarish sodir bo'lmaydi, faqat elementlarning bir turliligi bo'lmaydi, xolos. Sistema o'z butunligi va mohiyatini to'la-to'kis saqlab qoladi.

V amaliyot: Sistemada munosabatlarni to'la saqlagan holda gugurt cho'plarini uzunligi 1 sm bo'lgan cho'pchalar yoki 100 sm bo'lgan tayoqchalar yoki iplar, yoki oddiygina to'g'ri chiziqlar bilan almashtirsak, u holda sistemaning zohiriy belgilari - parametri, katta kichikligi, hajmi, vazni v.h. o'zgaradi, xolos. Sistema (ABCD kvadrati) o'z butunligini va mohiyatini (ya'ni UMIS sifatida zotiy xislatlarini) to'laligicha saqlaydi.

VI amaliyot. Agar ABCD to'rtburchagi xillarini hosil qilgan 4 element va sanab o'tilgan munosabat turlarini (teng yoki teng emaslik, parallel yoki parallel emaslik, perpendikulyar yoki perpendikulyar emaslik) ham miqdoran, ham mazmunan o'zgartirsak,


**I amaliyot chizmalari**

**To'g'ri burchakli to'rtburchak**




**3-chizma**

**Romb**




**4-chizma**

**Trapetsiya**




**5-chizma**

**Parallelogramm**




**6-chizma**


**II amaliyot chizmalari**




**7-chizma**



**8-chizma**



**9-chizma**



to'rtburchak jinsidan farqli sistemalar - butunliklar hosil bo'ladi. Biz bu 6 amaliyotni geometrik figuralar asosida shunchaki qilmadik. Aytib o'tganimizdek, geometrik figuralar biz kunda to'qnashadigan sistemalardan eng soddalari va bevosita kuzatishda osonlikcha beriladiganlaridir. Bundan tashqari, biz bu figuralar ustida bizni qiziqtiradigan istagan amaliyotni bemalol bajara olamiz va uning mahsulini ko'ra olamiz. Shuning uchun bular bizga tajriba maydonchasi, tajriba manbayi, xolos. Lisoniy tizimda ham geometrik figuralarda ko'rolgan o'zgarishlarimiz juda ko'plab sodir bo'ladi. Lekin bunday o'zgarishlarni biz ko'ra olmaymiz, ocha olamiz, xolos. Bu o'zgarishlarning mohiyatini esa geometrik figuralarda sodir bo'lgan o'zgarishlarga qiyosan baholash mumkin. Shunday o'zgarishlardan ayrimlarini sanab o'tamiz:

1. Mir Alisher Navoiy o'zining "Muhokamatul lug'atayn" asarida birinchi avlod (bir avlod) ichidagi qon-qarindoshlikni [8, B.18] atovchi leksemalar sistemasini quyidagicha beradilar:

og'a - egachi

: :

ini - singil

Oradan 500 yil o'tgach, bu sistema hozirgi o'zbek tilida quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

aka - opa

: :

uka - singil

Eski tilimizdagi va hozirgi tilimizdagi sistemalar boshqa-boshqami yoki ayni bir sistemaning ma'lum bir turdagi (mohiyatiga ta'sir etmaydigan) o'zgarishimi? Dastlab sistema va uning strukturasi beramiz va o'zgarish tabiatini aniqlaymiz. Har ikkala sistemada munosabatlar (yoshining katta-kichikligi, jinsining erkak yoki ayolligi asosida zidlanish va farqlanish) to'la saqlangan, lekin elementlarning moddiy ko'rinishi o'zgargan: og'a o'rnini aka, egachi o'rnini opa, ini o'rnida uka egallagan.

Geometrik figuralar ustidagi amaliyotlarimizdan bu mohiyatan beshinchi amaliyotga (munosabatlarni saqlagan holda elementlarning moddiy shakllari, turlarini almashtirishga) to'g'ri keladi. Bu amaliyotdan bizning xulosamiz esa quyidagicha: sistema to'la saqlanib, uning zohiriy, tashqi belgilarigina o'zgaradi. Bundan biz chuqur lingvistik (lisoniy tizim haqida) xulosa chiqara olamiz: XV asrdan XX asrgacha bir avlodga mansub bo'lgan qon-qarindoshlikni atovchi leksemalar tizimi mohiyatida hech qanday o'zgarish sodir bo'lgan emas, faqat bu sistemaning elementlarigina yangilandi.

Xuddi shunday holatni boshqa tizimlarda ko'rish mumkin.

II. Tilimizdagi gipo-giperonimik munosabatlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, tilimizda odatda giperonim va giponimlar boshqa-boshqa leksemalar bilan beriladi [9, B.15].

Chunonchi:

qoramol (giperonim) - sigir, ho'kiz, buzoq...(giponimlar)

ulov (giperonim) - ot, tuya, eshak, xachir...(giponimlar)

VIII-XV asrlardagi qadimgi tilimizda bosh kiyimlar turlarini atovchi giponimikqatorning giperonimi (bo'rkso'zi, bosh kiyimlarning umumiy nomi) bor edi. Hozirgi tilimizda bu so'z faqat bir necha maqol-matallar tarkibida saqlangan (Bosh omon bo'lsa, bo'rk topilar; Bo'rkni ol desang, boshni olib keladi) va faol so'zlar tizimida - do'ppi, qalpoq, telpak, salla....kabi bosh kiyimlari turlarini atovchi leksemalar sirasida giperonim yo'q, bo'rk so'zi ishlatilmaydi. Sistema yo'qoldimi, buzildimi? Dastlab, aniqlaymiz: bo'rk so'zining iste'moldan tushib qolishi mohiyatan (geometrik figuralar bilan qiyoslaganda) qanday o'zgarish? Munosabatlar saqlangan holda (o'zbek tilida leksemalarning gipo-giperonimikmunosabatlar bilan zidlanishi yo'qolgan emas) sistemadan bitta elementning chiqarilishi. Bu bizning geometrik figuralar ustidagi II amaliyotimizga (7-chizma) to'g'ri keladi: notugal, kamchilikli, sistema vujudga keladi. Lisoniy tizim - tirik organik tizimlar



singari - o'z-o'zini tiklaydigan tizimdir. Shuning uchun bu tizim bo'rk leksemasini yo'qotgan bo'lsa, tizimda bo'shliq (lakuna) hosil bo'ladi. Til tizimi bu lakunani [10, B. 212] bosh kiyimi so'z birikmasi bilan to'ldiradi. Qanday o'zgarish sodir bo'ldi? Mohiyatan bu geometrik figuralar ustida bajargan IV amaliyotimizga tengdir (bitta gugurt cho'pi 5 sm. li boshqa cho'pcha bilan almashtiriladi). Sistema mohiyatan o'zgarmaydi, saqlanadi va faqat elementlarning zohiriy, moddiy bir xilligi bir muncha o'zgaradi. Bu yerda ham: giperonim leksema bilan emas, so'z birikmasi bilan beriladi, xolos.

III. Tilimizda bilvosita birinchi kattaavlod qon-qarindoshligini [11, B.154] atovchi

amaki - amma

: :

tog'a - xola

leksemalar tizimi mavjud. Bu lisoniy hodisa va lisoniy bosqichgaxosdir. Biz o'z nutqimizda tog'a so'zini takror va takror qo'llashdan qochish yoki bu leksema ma'nosini boshqa birov gatush tiritish maqsadida bu so'z o'rnida nutqda "onamning akasi" yoki "onamning ukasi" birikmasini qo'lladik. Sistemada o'zgarish bo'ldimi? Geometrik figuralarga qiyoslasak, "yo'q" deb javob berishimiz kerak. Bunda ham bitta gugurt cho'pi (ya'ni bitta element) 5 sm.li boshqa cho'pcha bilan almashtirildi, xolos. tog'a leksik birligi o'rnini onamning akasi so'z birikmasi egalladi, xolos.

IV. Yuqorida ko'rib o'tilgan

og'a - opa

: :

ini - singil

leksik mikrosistemada og'a va ini leksemalari mustaqil birliklar sifatida o'zaro ekvipolent munosabatlarda turadi. Endi shu munosabatlarni buzib, yangilab og'a-ini juft so'zini hosil qilamiz. Elementlar orasidagi munosabat o'zgardir. Geometrik figuralardagi I amaliyot yangi sistema hosil bo'lganligi haqida ma'lumot bermoqda. Demak, og'a-ini juft so'zi ham oldingi mikrosistemadan boshqa alohida bir tizimchadir. Haqiqatan, og'a-ini juft so'zi oldingi mikrosistemadan farqlanuvchi yangi bir butunlikdir, ma'no va vazifa, demak, mohiyat jihatidan oldingidan farq qiladi. Masalan,

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir kishini uch o'g'li bor ekan. Og'a-inilar mehnatsevar, o'qimishli va juda ahil-inoq ekanlar. (Ertak) - O'rtancha botir o'ylabdi: "Og'am va inim uzoqda. (Ertak), Bu misoldan ko'rinib turibdiki, og'a-ini juft so'zi va og'am va inim so'zlar qo'shilmasi mohiyatan turli xil hodisalar. Geometrik figuralar ham (2-6-chizmalar) buni tasdiqlaydi.


V. Yuqorida ko'rib o'tilgan og'a-ini hosilasida tarkibiy qismlar yasama juft so'zlarga munosabatlar bilan o'zaro bog'langan edi. Juft yasama so'zlarning tarkibiy qismlari orasi uchun xos bo'lgan munosabatlar buzilib, yangilanib og'ayni qo'shma so'zi undan rivojlandi. Oldingi (ya'ni juft yasama so'z gaxos) sistema saqlandimi? Geometrik figuralar "yo'q" deb javob berishimizni aytib turibdi. I amaliyot sistema elementlari orasidagi munosabat qisman buzilsa ham oldingi sistema buzilishi va yangi sistema hosil bo'lishini ko'rsatib turibdi. Haqiqatan ham, og'ayni qo'shma so'zi bilan uning kelib chiqish manbai bo'lgan og'a-ini juft yasama so'zi orasida faqat genetik, tarixiy, kelib chiqish aloqalari bor. Bulardan har biri boshqa-boshqa sistemalarning - biri juft yasama so'zlarning, ikkinchisi -leksikalizatsiya hodisasiga uchragan qo'shma so'zlarning birliklaridir.

Lisoniy sistema ongda, tafakkurda mavjud, uni ochish qiyin, ko'rsatish esa umuman mumkin emas. Mana shuning uchun biz sistema mohiyati, unda elementlar, ularning moddiyliklari va o'zaro munosabatlarini ko'rish va ko'rsatish maqsadida geometrik figuralar ustida tilimizning lisoniy tizimida sodir bo'ladigan hodisalarga o'xshash ishlarni bajardik, elementlarda va ularning o'zaro munosabatlarida ro'y beradigan o'zgarishlar sistemaga qanday ta'sir etishini ko'rdik va ko'rsatdik, bunday o'zgarishlarning natijalari

haqida shubhasiz xulosalarga keldik; bu umumiy xulosamiz sistemologlar chiqaradigan hukm bilan aynan: sistema mohiyatini elementlar orasidagi munosabatlar belgilaydi. Munosabatlar saqlanib, elementlarning o'zining o'zgarishi sistema mohiyatiga ta'sir etmaydi.


Mazkur jarayonda biz juda ko'p marotaba bu yerda ko'rib o'tilgan geometrik figuralar ustidagi amaliyotlarimizga havola beramiz va biz uchun ochiq-ravshan bo'lgan hodisalarga qiyosan bevosita kuzatishda berilmagan o'zgarishlar haqida hukm chiqaramiz. Chunki tilimiz o'z so'zlarini tez-tez yangilab, o'zgartirib turadi. Bu o'zgarishlar nega juz'iy, yuzaki deb baholanadi? Yaqin kunlargacha tilimizda nohiya va tuman so'zlari yonmayon ishlatilar edi. Bugun esa nohiya so'zi deyarlm qo'llanilmaydi. 1970-80-yillarda keng qo'llanilgan rayon so'zi o'rnini tuman so'zi egalladi. Sistema yangilandimi? O'zbek tili sistemasining bir bo'g'inchasi o'zgardimi? Yoki: bir kishi "baliq" turlarini ifodalovchi 20 ta so'zni biladi va nutqida ularning barchasidan foydalanadi. Boshqa kishi esa "baliq" turlarini atovchi uchtagina so'zni biladi, xolos. Bu ikki kishida lisoniy sistema boshqaboshqami? Yuqoridagi tavsifimiz ko'rsatib turibdiki, bunday juz'iy o'zgarishlar sistemaga, sistemaviy munosabatlarga ta'sir etmaydi. Shuning uchun sistemalashtirish jarayonida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan bunday hodisalar, sistemani ochish va tavsiflash jarayonida bunchalik kattaahamityaga ega emas: bir element o'rnini boshqa element egallaydi, xolos. Almashtiruvchi element o'sha sistema talablariga mos bo'lsa bas, sistema, demak, sistemaviy munosabatlar ham o'zgarmaydi: bola sanashni o'rganish jarayonida barmoqlarini bukib sanaydimi yoki cho'pchalar (toshchalar, boshqa turdagi sanaladigan narsalar) yordamidami, uning ahamiyati yo'q; turli xil sharoitlarda turli xildagi narsalardan foydalaniladi, xolos.

Bu jarayonda matematika bilan, geometrik figuralar bilan bog'liq bo'lgan yana bir hodisa bizga kerak bo'ladi. Bu ham bo'lsa matematikada Kolmogorov chizig'i deb ataladigan va tilshunoslikka Baxtiyor Mengliyev olib kirgan hodisadir. 10-chizmada ikki bir biriga tutash geometrik figuralar berilgan. Ulardan biri ABCD kvadrati va ikkinchisi BED uchburchagidir. BD to'g'ri chizig'i har ikkala figura uchun umumiy bo'lib, ADCD kvadratida u kvadrat tomonigaxos belgi-xususiyat va munosabatlarga ega bo'lsa, BED uchburchagidashu BD to'g'ri chizig'i uchburchak tomonlarigaxos belgi-xususiyat va munosabatlarga ega.



**10-chizma**


10-chizmada bitta BD chizig'i mavjudmi yoki bu yerda ikkita chiziq mavjudmi? Chunki 10-chizmadagi figurani tarkibiy qismlarga ajratsak, quyidagilar hosil bo'ladi:



**11-chizma**

11-chizmada ikki xil mohiyatli ikkita BD chizig'i borligiga hech kim shubha qilmaydi.

Lekin 10-chizmada-chi? BD ikkita (kvadrat tomoni va uchburchakning tomoni)mi, bittami, matematiklar haligacha uzil-kesil hal qilib bermaganlar. Tilshunoslikda ham shunday muammolar talaygina. Masalan, Aytar so'zni aytar. Bir o'rindaaytar sifatdosh, ikkinchi o'rinda tushlangan fe'lining aniqlik mayli hozirgi-kelasi (yoki kelasi (12-chizma).



### 1.12-chizma

zamon gumon) zamon shaklining III shaxs birlik son ko'rinishi. Buni 10-chizmadagidek joylashtirsak, quyidagi holat chiqadi:

Bu tizimda aytar omonimik formalarmi yoki ko'p vazifali bitta shaklmi? Ishning uchinchi bobida biz tilimizda bunday hodisalar juda ko'p ekanligigaamin bo'lamiz. Hozir, bu yerda bunday hodisaaniq fanlarning anig'i - matematikada ham borligini aytib o'tish kifoya. Chunki til matematikadan ko'raaniqroq va mukammalroq sohadir. Matematikada hozirgacha mohiyati munozarali bo'lgan hodisani tilimiz o'z tizimidaaniq yechimini bergan. Aytar so'zni aytar gapida ikki marta qo'llanilgan aytar birligining lisoniy tarkibi zohiran bir xil. Mohiyatan esa birinchi aytar sifatdosh shakli bo'lib, nol morfemaga ega emas. Chunonchi,

*Men*  
*Sen }aytar so'z*  
*U*

Lekin ikkinchi qo'llanilishdaaytar III shaxs, birlik son nol morfemasi bilan kelgan [12,B.26]. Qiyoslang:

Men aytar-man.  
 Sen aytar-san.  
 U aytar-0.

Shuning uchun Aytar so'zni aytar gapida ikki xil shakl mavjud.

Shunday mufassal metodologik-matematik kirishdan keyin bevosita tilimiz va uning sistemaviy qurilishi talqiniga o'tamiz. Bunda bugungi tilshunoslik oldimizda qo'yadigan muhim savollardan biri: Nega sistemaviy talqinlarda, albatta, lison-nutq bo'linishi farqlanadi va nega sistemaviylik faqat lisoniy tizim uchun xos belgi sanaladi, degan savolga javob berishdir.

G'arbda yangi yo'nalishdagi sotsiolingvistik tadqiqotlar avj olgandan keyin

[13, B.52]- ma'lum bo'ldiki, lison ham, nutq ham sistemaviy qurilishga ega, lekin ulardan har birining sistemaviylik o'zigaxos; lison va nutq sistemalari tarkib, vazifa v.b. jihatdan bir xil emas. Lisoniy sistema fikrni shakllantirish, ifodalash, axborotni kodlashtirishga imkoniyat beradigan UMIS tabiatli birliklar va ularning o'zaro munosabatlarida ko'rilsa, nutqiy tizim bu imkoniyatlarning turli sharoitlarda bayon va qabul qilish, saqlash vositalaridan tarkib topadi. Shuning uchun nutqiy tizim uchun o'ta ahamiyatli bo'lgan qator holatlar (chunonchi, nutq sharoiti va shakli, kommunikantlarning xususiyatlari, nutq maqsadi v.b. shu kabi kommunikatsiyaning voqelanishi bilan bog'liq bo'lgan holatlar) lisoniy tizim uchun ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Aksincha, lisoniy tizim uchun o'ta ahamiyatli bo'lgan munosabatlar nutqda umuman berilmagan. Mana shuning uchun 5 jildli foliantda (1-8 o'lchovli hajmda) qariyb 2000 betni tashkil qilgan

F.Boppning "Sanskrit grammatikasi" dan, F.Boppning o'zi tan olganidek, Paninining 100 betli (1-32 o'lchovda) grammatikasi mukammalroq bo'lgan [14,B.87].

Lison ham, nutq ham sistemaviy, lekin lisoniy sistemaning tabiati nutqnikidan tubdan farq qiladi: lisoniy sistema - imkoniyatlar, umumiyliklar tizimi (paradigmalari), nutqiy sistema - bevosita voqelanish tizimi. Umumiylikning voqelanishi xususiyliklarni beradi. Bu xususiyliklar esa mohiyatan cheksiz bo'lib, biz ularni hech qachon sanab nihoyasiga yetolmaymiz. Lisoniy sistema dialektik umumiylik va imkoniyat tabiatiga ega bo'lganligi sababli uning qurilishini, elementlari orasidagi munosabat turlarini nisbatan aniq chegaralash, tavsiflash mumkin. Formal-funktsonal yo'nalishdagi tadqiqotlar pog'onaviylik va privativlikka tayanuvchi gi po-gi peronimik munosabatlar lisoniy sistema qurilishi va mohiyatini ochishga va tavsiflashga imkon berishini ko'rsatmoqda.

### Иқтибослар/Сноски/References

- 1.Звегинцев В.А. История языкознания.ХІХ-ХХ веков в очерках и извлечениях Часть 2. - М.: Просвещение, 1965. - 496 с.; (Zvegintsev V.A. Istoriya yazikoznaniya.XIX-XX vekov v ocherkax i izvlecheniyax Chast 2. - М.: Prosvehenie, 1965. - 496 s.;
- 2.Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. -Т.: Шарқ, 2001.- 134 б.(Nurmonov A., Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. -T.: Sharq, 2001.- 134 b.)
- 3.Тахтаджан А.А. Тектология. История и проблемы. Системные исследования. Ежегодник. 1971. -М.: Наука, 1972.-С.: 46-96.(Taxtadjan A.A. Tektologiya. Istoriya i problemiy. Sistemniye issledovaniya. Ejegodnik. 1971. -М.: Nauka, 1972.-S.: 46-96.)
- 4.Системные исследования. Ежегодник. 1971. -М.: Наука, 1972.-С.: -260 с.; (Sistemniye issledovaniya. Ejegodnik. 1971. -М.: Nauka, 1972.-S.: -260 s.;
- 5.Солнцев В.М.Язык как системно-структурное образование. -М.: Наука, 1977. - 338 с.(Solntsev V.M.Yazik kak sistemno-strukturnoe obrazovanie. -М.: Nauka, 1977. - 338 s.)
- 6.Амирова Т.А., Ольховников Б.А., Рождественский Ю.В. Очерки по истории лингвистики. -М.: Наука, 1972.-560 с.; (Amirova T.A., Olxovnikov B.A., Rojdestvenskiy Yu.V. Ocherki po istorii lingvistiki. -М.: Nauka, 1972.-560 s.;
- 7.Лайонз Дж. Введение в теоретическую лингвистку . - М.: Прогресс. 1978.- 544 с.; (Layonz Dj. Vvedenie v teoreticheskuyu lingvistku. - М.: Progress. 1978.- 544 s.;
- 8.Нарзиева М.Ж. Систематическая структура имён существительных возрастной характеристики лица в узбекском языке.: Автореф.дис. канд.филол.наук. - Т.:ИЯиЛ, 1992.(Narzieva M.J. Sistematiceskaya struktura imyon suhestvitelnix vozrastnoy xarakteristiki litsa v uzbekskom yazike.: Avtoref.dis. kand.filol.nauk. - Т.:IYaiL, 1992.)
- 9.Сафарова Р.Г. Гипонимия в узбекском языке. Автореф.дис. канд.филол.наук - Т., 1990.( Safarova R.G.Gi ponimiyav uzbekskom yazike.Avtoref.dis.kand.filol.nauk - Т., 1990.)
- 10.Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков.- М.: Просвещение, 1989. -288 с.; Севортыан Э.В. Аффиксы глаголообразования в азербайджанском языке.- М.: Наука, 1962.-658 с.(Gak V.G.Sravnitelnayati pologiya frantsuzskogo i russkogo yazikov.- М.: Prosvehenie, 1989. -288 s.; Sevortyan E.V. Affiksiy glagoloobrazovaniya v azerbaydjanskom yazike. - М.: Nauka, 1962. -658 s.)
- 11.Исмоилов А.И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари.- Т : Фан, 1966. -178 б.; (Ismoilov A.I. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari.- Т : Fan, 1966. -178 b.;
- 12.Rahmatullaev Sh. U. Semema-mustaqil til birligi// J.O'TA. -1984. №5. -b.24-30.
- 13.Мо'мин Сиддиқ . So'zlashish odobi. - Farg'ona, 1997. -104 b.;

# ТИЛ, ТАЪЛИМ, ТАРЖИМА ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

**Botirova Adiba**

Dotsent, Navoiy davlat pedagogika instituti,  
Navoiy, O'zbekiston  
botirovaadiba@gmail.com

## GRAMMATIK O'QUV LUG'ATLARI TUZISH VA ULARDAN FOYDALANISH BO'YICHA TAVSIYALAR

### ANNOTATSIYA

Maqolada o'zbek tili ta'limiy korpusi uchun grammatik o'quv lug'atlari yaratish va ulardan foydalanish, shuningdek, o'zbek yangicha yondashuv hisoblangan so'z turkumlari tasnifiga asoslangan ham imlo, ham to'g'ri talaffuzga o'rgatuvchi, ta'lim jarayonida, shuningdek filologik tadqiqotlarda, ish yuritish va hujjat tuzish ishlarida foydalaniluvchi elektron korpus lug'atlari yaratish, kompyuter leksikografiyasida kompyuterlar va tayyor matn korpuslaridan foydalanish, elektron lug'at yaratish jarayoni, elektron lug'atlardan foydalanishdagi afzalliklar hamda elektron lug'atni yaratishdagi matnlar korpusini shakllantirish va parallel ravishda lug'at yaratish, misollar korpusini avtomatik shakllantirish, lug'at yozuvlarini yozish, lug'at yozuvlarini ma'lumotlar bazasiga kiritish (DB), ma'lumotlar bazasida lug'at yozuvlarini tahrirlash, ma'lumotlar bazasida matnni tuzatish, lug'at matnini yaratish va asl maketni shakllantirish, lug'atni chop etish kabi bosqichlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'limiy korpus, milliy til korpusi, kompyuter lingvistikasi, o'quv izohli lug'atlari, so'z turkumlari lug'ati, lug'at turlari, transkripsiya, lingvistik tadqiqot, ish yuritish, hujjat tuzish

**Botirova Adiba**

Associate Professor of the Navoi State Pedagogical Institute,  
Doctor of Philology, Navoi, Uzbekistan  
botirovaadiba@gmail.com

## RECOMMENDATIONS FOR THE COMPILATION AND USE OF GRAMMATICAL EDUCATIONAL DICTIONARIES

### ABSTRACT

In the article, the creation and use of grammatical dictionaries for the educational corpus of the Uzbek language, as well as teaching both spelling and correct pronunciation based on the classification of word groups, which is considered a new Uzbek approach, creation of electronic corpus dictionaries used in the educational process, as well as in philological research, clerical work and document preparation, the use of computers

and ready-made text corpora in computer lexicography, the process of creating an electronic dictionary, the advantages of using electronic dictionaries creation of a corpus of texts and parallel creation of a dictionary, automatic creation of a corpus of examples, writing dictionary entries , entering dictionary entries into a database (DB) editing dictionary entries in the database, correcting text in the database , the stages of creating the dictionary text and creating the original layout printing the dictionary are considered.

**Keywords:** Academic building, national language building, computational linguistics, educational explanatory dictionaries, vocabulary dictionary, types of dictionaries, transcription, linguistic research, stationery, document creation.

**Ботирова Адиба**

Доцент, Навоийского государственного педагогического институт,  
 Навои, Узбекистан  
 botirovaadiba@gmail.com

## РЕКОМЕНДАЦИИ ПО СОСТАВЛЕНИЮ И ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ГРАММАТИЧЕСКИХ УЧЕБНЫХ СЛОВАРЕЙ

### АННОТАЦИЯ

В статье приведены рассуждения о создании и применении учебных словарей для образовательного корпуса узбекского языка, а также, о создании электронного словарного корпуса, нового узбекского подхода, основанного на классификации частей речи и обучающих как орфографии, так и правильному произношению, создании электронных корпусных словарей, используемых в учебном процессе, а также в филологических исследованиях, делопроизводстве и подготовке документов, использование компьютеров и готовых корпусов текстов в компьютерной лексикографии, об этапах процесса создания электронного словаря, преимуществах использования электронных словарей и текстов при создании электронного словаря, формировании корпуса текстов и параллельное создание словаря, автоматическом формировании корпуса примеров, написании словаря, вставки словарных текстов в базу данных (БД), редактировании словарных правописаний в базе данных, исправление текста в базе данных, обсуждаются этапы создания текста словаря и создания оригинального макета, печати словаря. Ключевые слова: Учебный корпус, корпус национального языка, компьютерная лингвистика, учебные толковые словари, словарный словарь, типы словарей, транскрипция, лингвистические исследования, канцелярские принадлежности, создание документов

Jahon tilshunosligida lingvistik ta'minotning nazariy, metodologik muammolarini o'rganish o'tgan asrning 60-yillarida boshlandi. Dunyoda kompyuter lingvistikasida tabiiy tilga ishlov berish muammolari A.Keyler, K.V.Linden, N.Vard [2, P.950], M.A.Mohri [4,P.312] kabilar tomonidan tadqiq etildi.

Keyingi yillarda kompyuter lingvistikasida ta'limiy korpusni ishlab chiqish, jumladan, grammatik lug'atlar yaratish masalalari keng tadqiq etilishi, amaliy ishlar bajarilishi - birlamchi vazifalar qatoriga ko'tarildi. Lug'at lingvistik adabiyotlar ichida tillararo munosabatni ta'minlash, tilning grammatik qurilishini tadqiq qilish, til me'yorlarini belgilash, jamiyat a'zosining milliy tafakkuri, nutq boyligini o'stirish, ijtimoiy-siyosiy ongini shakllantirishdagi bebaho xizmati bilan alohida ajralib turadi. XX asr boshlariga kelib, lug'at ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi e'tirof etila boshladi. O'zbek tili va uning zamonaviy keng miqyosli tadqiqi davlatimiz rahbari tomonidan ham